

## “Ibrohimbek qo’rboshi” nomli kitob nashr etildi

O’zR FA Tarix instituti bosh ilmiy xodimi, professor Qahramon Rajabovning “Ibrohimbek qo’rboshi” nomli kitobi nashr etildi.



Monografiyada Sharqiy Buxoro hududida sovet davlati va uning harbiy kuchlari bo’lgan qizil armiyaga qarshi uzoq yillar mobaynida fidokorona kurashgan o’zbek laqaylarining mashhur yetakchisi va dohiysi Ibrohimbek qo’rboshi (1889-1932) va uning jasur safdoshlari faoliyati yoritilgan. Yovqur va mard o’zbek qo’rboshilari Rossiya va SSSRning harbiy kuchlariga qarshi, mahalliy xoinlar va sotqinlarga qarshi mardona kurashda yengilsalarda ularning jasorati Turkiston tarixidagi milliy ozodlik harakatlarining eng shonli zarvaraqlarini tashkil qiladi. Kitob arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari, zamondoshlari xotiralari hamda tarixiy tadqiqotlar tahlili va tadqiqi asosida yozilgan bo’lib, ilovada Ibrohimbek haqidagi xalq qo’shiqlari va arxiv hujjatlari asliyatda e’lon qilinmoqda.

Kitob Turkistondagi istiqlolchilik harakati tarixi hamda qo'rboshilar faoliyati bilan qiziquvchi barcha kitobxonlarga mo'ljallangan.